Ikkinchidan, huquqiy aniqlik: murakkab ashyolarni tasniflash ularning huquqiy maqomini belgilashda aniqlikni ta'minlaydi. Bu esa mulk huquqi, majburiyat huquqi, xususan, shartnomaviy munosabatlar va javobgarlik masalalarida huquqiy noaniqliklarning oldini oladi. Misol uchun, murakkab ashyoni oldi-sotdi qilish bo'yicha shartnoma tuzishda ularni ajratish yoki birlashtirish masalasi hal qilinishi lozim.

Uchinchidan, tartibga solishning o'ziga xosligi: murakkab ashyolar odatda murakkab huquqiy rejimni talab qiladi, chunki ular bir nechta obyektlardan iborat bo'lsa ham, huquqiy munosabatlarda yagona obyekt sifatida qatnashadi. Masalan, korxona sotilganda uning barcha

moddiy va nomoddiy tarkibiy qismlari, shu jumladan intellektual mulk bilan bog'liq obyektlar, shartnomaviy va moliyaviy majburiyatlar birga o'tadi.

Murakkab ashyolar, fuqarolik huquqining obyektlari sifatida, boshqa huquqiy obyektlardan farqli ravishda bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Ushbu xususiyatlar murakkab ashyolarning huquqiy mohiyatini va ulardan foydalanish qoidalarini belgilashda muhim rol o'ynaydi. Xususan, H.Rahmonqulov fuqarolik huquqi obyekti sifatida murakkab ashyolarning bir qator belgilarini ajratib ko'rsatadi. Ko'rsatiladiki, murakkab ashyolar yaxlit bir butun ashyo sifatida quyidagi belgilari bilan ifodalanadi:

- murakkab ashyo turlicha, ya'ni o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biridan farq qiladigan ashyolarni o'zida birlashtiradi;

murakkab ashyo turli yaxlit ashyolardan tashkil topgan bo'lib, bir butun ashyo sifatida foydalaniladi;

- ulardan qanday maqsadda foydalanish uchun mo'ljallangan bo'lishi, ashyolar yig'indisining mohiyati, ularning murakkab ashyo sifatida bir butun ashyo hisoblanishi bilan belgilanadi [15, 33-34-betlar].

Bundan tashqari, murakkab ashyoning boshqa xususiyatlari ham ajratib ko'rsatilgan:

- agar ular fuqarolik muomalasida erkin bo'lsa, meros, hadya qilish yoki boshqa huquqlarni o'tkazish yo'li bilan bir shaxsdan boshqa shaxsga erkin begonalashtirilishi yoki o'tkazilishi mumkin;
- muomalada cheklangan bo'lishi mumkin;
- qiymatga ega bo'la olishi, ya'ni ijtimoiy subyektning (jamiyatdagi individ, odamlar guruhi) ehtiyojlarini, istaklarini, manfaatlarini qondirish uchun obyekt bo'la olish xususiyatiga ega bo'lishi [16, 82-bet].

Fikrimizcha, murakkab ashyolarning alohida farqlovchi xususiyatlari tahlilga muhtoj va ishning asosiy qismida ushbu masala batafsil tadqiq etiladi.

Erk-iroda yo'qligi — murakkab ashyolarning fuqarolik huquqining boshqa obyektlari bilan umumiy birinchi belgisi. Odatda falsafashunos va huquqshunoslar tomonidan murakkab ashyolarning belgilari muhokama qilinishidan oldin murakkablik va ashyo to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni o'rganib chiqilishi lozim bo'ladi. Har qanday fanda muayyan hodisalarning belgilari odatda ularning umumiy va o'ziga xos, ya'ni maxsus xususiyatlarga bo'linishi orqali tasniflanadi. Murakkab ashyolarda ham fuqarolik huquqining boshqa obyektlari singari bevosita murakkab ashyolarga xos bo'lgan o'ziga xos belgilar mujassamlashgan. Ushbu belgilarni tasniflash va izohlash keyingi tadqiq vazifasi sanaladi.

Umuman olganda, ushbu mezon huquq subyektlarini huquq obyektlaridan ajratish imkonini beradi. Rim huquqi bo'yicha klassik darsligida T. Maretsoll quyidagicha ta'kidlaydi: "Ashyo (*res*) — bu fazoda mavjud bo'lgan, lekin shaxsiyati yo'q bo'lgan har qanday ne'matdir" [9, 158-bet]. Shunga o'xshash ta'rifni D.I. Meyer ham biroz istisno keltirgan holda aytib o'tadi: "ashyo — bu huquq subyekti ahamiyatiga ega bo'lmagan predmet" [11, 153-bet]. Shaxs erk-irodaga ega bo'lish bilan tavsiflanadi — bu psixikaning shunday xususiyatiki, u o'z oldiga qo'ygan maqsadlarni va niyatlarini amalga oshirishga erishish qobiliyatiga ega.

Albatta, insonlar orasida irodaga to'la ega bo'lmagan shaxslar (masalan, ruhiy va aqliy kasal) mavjud, ammo bu ularning shaxs sifatidagi huquqiy xususiyatlarini yo'qotganligini anglatmaydi: muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilgan shaxslarning manfaatlarini ularning vasiylari yoki homiylari tomonidan himoya qilinadi

(Fuqarolik kodeksining 30 va 31-moddalari). Aniqroq qilib aytganda, bu holatda huquq layoqati “to’ldiriladi”. Zamonaviy fuqarolik qonunchiligida huquq layoqatidan to’liq mahrum qilish nazarda tutilmagan. Jismoniy shaxslarda bu ular tug’ilgan paytdan boshlab vujudga keladi va ularning o’limi bilan yakunlanadi (Fuqarolik kodeksining 17-moddasi, 2-qism). Qonun bilan belgilangan holatlar va tartibda faqat muomala layoqatning cheklanishi mumkin.

Odatda “inson” va “shaxs” tushunchalari huquq obyektlariga qarshi qo’yish maqsadida bir xil ma’noni anglatadigan bo’lib qoldi (bejizga ashyolar bugungi kunda insondan tashqaridagi moddiy dunyo predmetlari sifatida belgilanmaydi). Inson (faqatgina u erk-iroda qobiliyatiga ega) umuman fuqarolik huquqi obyekti va yoki ashyo sifatida tan olinmaydi. Bu holat shaxsning qadr-qimmatiga oid gumanitar g’oya rivojlanishining huquqiy natijasi bo’ldi, deb aytish mumkin¹. Biroq ushbu tamoyil hali juda yosh. 1807-yilda Buyuk Britaniyada “Qul savdosini bekor qilish to’g’risida”gi qonun² qabul qilinib, rasman qul savdosi taqiqlangan; AQShda esa 1865-yilda (Konstitutsiyaning XIII-tuzatishi bilan) qullik bekor qilingan. Bizga ma’lumki, Rim huquqida “inson” va “shaxs” tushunchalari farqlangan: qul ashyo, ya’ni *instrumentum vocale* (gapiruvchi vosita) hisoblangan [1, 86-bet]. Hatto o’sha davrda insonlar guruhlar: legionlar, xorlar, aktyorlar jamoalari ham ashyo sifatida ko’rilgan.

Ta’kidlash kerakki, “jonli – jonsiz” qarama-qarshiligi ushbu belgi uchun ahamiyatga ega emas. Ashyo jonli bo’lishi mumkin, lekin erk-irodaga ega emas, ya’ni shaxsiyat xususiyatlariga ega emas (masalan, hayvonlar mol-mulk sifatida ko’riladi — Fuqarolik kodeksining 93-moddasi).

Diskretlik — murakkab ashyolarning fuqarolik huquqi obyektlari bilan umumiy bo’lgan ikkinchi xususiyati. Zamonaviy sivilistikada diskretlik belgisining eng to’liq tavsifi V.A. Lapach tomonidan o’rganilgan [7, 140-155-betlar] va bu shubhasiz uning muallifligi ishining eng samarali natijalaridan sanaladi. Olimning ta’rifi bo’yicha **obyektning diskretligi** — bu uning “sifat jihatidan, shuningdek, jisimiy yoki hisobga olish nuqtai nazaridan aniq belgilanishi hamda boshqa barcha obyektlardan ajralib turishi”dir. Bu barcha fuqarolik huquqi obyektlarining umumiy belgisi hisoblanadi.

Ashyolardagi diskretlik (lotincha *discretus* – ajratilgan, uzilgan) avvalo fazoviy chegaralanish bilan ifodalanadi [2, 69-bet]. Dunyo o’zining asosiy mohiyatida u odatiy ko’plikdan ko’ra, o’zining xususiyatlari bilan “bo’linmas va ajralmas birlik”ni eslatadigan yagona ne’mat sifatida namoyon bo’ladi. Fazoviy cheklanganlik obyekti va muhitni (predmet va fon³) ajratishning zaruriy sharti hisoblanadi. Atrof-muhit (fon) cheksiz bo’lib, bu uning moddiy-fazoviy kontinuum⁴ sifatidagi fuqarolik huquqi obyekti bo’lgan ashyodan farq qiladi. Ajralish sohasi chegara hisoblanadi, u tufayli ashyo muhitdan ajralib chiqadi va o’zining moddiy tabiatini saqlab qolgan holda ifodalanadi. Ashyo chegaraga ega bo’lganligi sababli, u chekli hisoblanadi; cheklilik esa sifat belgisi bo’lib, ashyoning yaxlit va butunlik sifatida aniqligini anglatadi. Agar ashyolar chegaraga ega bo’lmasa, ular bir-biridan farqlanmaydi. Shu o’rinda Homunkulus va Mefistofel suhbatini (“*Faust*”) eslasak:

¹ 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 4 va 6-moddalari // <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>

² “Slave Trade Abolition Bill”. Hansard (10-fevral 1807-yil). Tashrif buyurildi: 2024-yil 20-dekabr.

³ Predmet va muhit (fon) bir-biridan chegaralar orqali ajraladi. Ushbu chegaralar predmetning huquqiy aniqligini ta’minlaydi. Masalan, yer uchastkasining chegaralari uni atrofdagi tabiiy muhitdan ajratib turadi.

⁴ Moddiy-fazoviy kontinuum — bu fizik va falsafiy tushuncha bo’lib, u moddiy olamning uzluksiz va bo’linmas tuzilishini ifodalaydi. Bu tushuncha odatda fazo, vaqt va moddiy obyektlarning bir butunligi sifatida talqin qilinadi. Kontinuumda har qanday nuqta boshqa nuqtalar bilan bog’langan bo’lib, bu uzluksizlikni anglatadi.

“...Ashyolarning muqarrar teskari tomoni:

Tabiiy olam uchun koinot torlik qiladi¹,

Sun'iy obyektga esa yopiq fazo kerak!²...”

Ashyoning o'ziga xosligi aynan uning aniqligi belgilanadigan joydan boshlanadi. Buning uchun ashyo boshqa obyektlar bilan o'zaro aloqadan, atrofdagi moddiy muhitdan ajratilishi, uni “o'z holicha” ko'rish lozim.

Faylasuflarning ta'kidlashicha, amalda kuzatilayotgan butun moddiy olam diskret tarzda tuzilgan. Bunda obyektlar olamida hamma narsa o'zgaradi. Ya'ni moddiy muhitdagi predmetlarning sifat jihatidan o'zgarishi muntazam ravishda sodir bo'ladi. Ashyoning dialektik-huquqiy o'zgaruvchanligi shundaki, bir holatda u mustaqil qiymatga ega predmet sifatida namoyon bo'lsa, boshqa holatda umumiyroq obyektning tarkibiy qismi bo'lib qoladi, uchinchi holatda esa o'zi ko'plab mayda elementlarga bo'linib ketadi — ular ham qimmatli (kolleksiyadagi ayrim eksponatlar) yoki aksincha, hech kimga kerak bo'lmagan (kiyim parchalari) narsa bo'lishi mumkin. K.Prutkov ta'biri bilan aytganda, “shunday bir buyuk ne'mat yo'qki, undan ham buyukrog'i bo'lmasa; shunday kichik ne'mat yo'qki, undan ham kichikrog'i sig'masa” [13, 74-bet]. Bir qancha mustaqil ashylar sifat jihatidan yangi tuzilma — keyinchalik huquqlarning yagona obyekti sifatida mavjud bo'ladigan majmua (murakkab ashyo)ga birlashtirilishi mumkin. Fuqarolik muomalasida telefonning ekran oynasi nafaqat alohida buyum (mahsulot, tovar) sifatida, balki telefonning asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida ham tasniflanishi mumkin. Masalan, telefonning **ekran oynasi** nafaqat mustaqil komponent, balki **sensorli displeyning** ajralmas qismi sifatida talqin qilinishi mumkin. Shu kabi boshqa qismlar, masalan, **kamera moduli**, **batareya** yoki **protsessor** ham alohida qismlar bo'lishi bilan birga, telefonning to'liq ishlashi uchun zarur tarkibiy qismlardir. Shu tariqa, yuqoriga qarab: sensorli displey – telefonning bir qismi, telefon esa mulkiy majmua sifatidagi korporativ aktivlarning bir qismi sifatida ko'rilishi mumkin.

O'z vaqtida rim huquqshunosi Pavel bu uzluksizlikni quyidagicha izohlagan: “...agar inventarizatsiya ro'yxatiga qozon kiritilsa, u holda qozonga suv quyish uchun ishlatiladigan ko'zalar ham xuddi shu toifaga kiradi va keyin cheksizlikka qadar har bir dastlabki predmet orqasidan u bilan bog'liq bo'lgan keyingisi paydo bo'ladi” [4, 103-bet].

Real obyektlar ko'pincha o'z tarkibida ular bilan bog'liq bo'lgan boshqa obyektlarni o'z ichiga olgan holda namoyon bo'ladi [6, 19-20-betlar]. Ular yo'q qilinadi va qaytadan yaratiladi, ularning iqtisodiy va madaniy qiymati turli davrlarda ko'tarilish va pasayishlarni boshdan kechiradi. Ashyolarning huquqiy olami — bu ularni idrok etishning va natijada huquqiy tartibotning abadiy o'zgarishlaridir.

Diskretlik ashyoqa egalik qilish uchun muhim sanaladi, chunki egalik qilish bu ashyni doimo his qilish emas, balki unga o'zining shaxsiy (mutlaq) amaldagi hokimiyatini, ya'ni hukmronligini yoyish imkoniyatini anglab yetishdir. O'z vaqtida K.P. Pobedonostsev “huquqqa mos keladigan egalik moddiy chegaralari haqida aniq tasavvurga ega bo'lish zarurligini” aytib o'tgan [12, 211-bet] edi. Demak, ashvoviy huquq o'zining moddiy chegaralari

¹ “Tabiiy olam uchun koinot torlik qiladi” — bu tabiiy obyektlar, hodisa yoki jarayonlarning o'z mohiyati bilan keng qamrovli va cheksiz ekanligini anglatadi. Tabiat o'zining go'zalligi va murakkabligi bilan chegaralardan oshib ketadi, uni qamrab olish yoki cheklash mumkin emas.

² “Sun'iy obyektga esa yopiq fazo kerak” — bu esa inson tomonidan yaratilgan, ya'ni sun'iy obyektlar yoki tizimlarning doimo aniq belgilangan chegaralar va qoidalarga muhtoj ekanligini bildiradi. Sun'iy ne'mat o'z funksionalligi va mavjudligi uchun yopiq va boshqariladigan tuzilmani talab qiladi.

belgilanmaguncha, “mening mulkim tugab, seniki boshlanadigan tashqi chiziq aniq bo‘lmaguncha” o‘zining to‘liq aniqlik darajasiga erisha olmaydi.

Ko‘pincha shunday holatlar bo‘ladiki, ma‘lum predmetlarni yaqin masofadan his qilish, ko‘rish mumkin, masalan, kanaldagi suvni. Ammo, agar ularni aniq chegaralash, boshqa predmetlardan ajratish, tashqi dunyodan izolyatsiya qilish va individuallashtirishning imkoni bo‘lmasa, ularga nisbatan ashyo xususiyatini tan olishning mantig‘i yo‘q. Aksincha, balonda saqlanadigan tabiiy gaz yoki sisternadagi suv alohida, diskret obyektlar sifatida ashyo hisoblanadi.

D.I.Meyer faqat o‘ldirilgan yoki qafasga qamab qo‘yilgan qush insonning egalik obyekti, ya‘ni fuqarolik-huquqiy ma‘noda ashyo bo‘lishi mumkinligini ta‘kidlagan [11, 139-bet]. G.F.Dormidontovning fikriga ko‘ra, yovvoyi hayvon ustidan egalik huquqi unga tutish uchun qo‘yilgan to‘rga tushgan zahotiyoy vujudga keladi; daraxt yoki uning kovagida joylashgan asarlari uyasi faqat uyaga joylashtirilganidan keyingina egalikka o‘tadi [5, 63-bet]. Aksincha, yovvoyi hayvonlar, masalan, dengiz bioresurslari, tabiiy yashash muhitida bo‘lib, undan ajratilmagan bo‘lsa, xalqaro huquqqa muvofiq, hech kimning mulki hisoblanmaydi.

Murakkab ashylar fuqarolik huquqi obyektlari sifatida bir qancha xos belgilarga ega bo‘lib, ularning huquqiy tartibga solinishini aniqlashda ushbu belgilar muhim ahamiyatga ega. Ular ichida moddiylik va nomoddiy obyektlarning o‘ziga xos farqlari alohida o‘rinni egallaydi. Murakkab ashylarning fuqarolik huquqi obyektlari bilan umumiy belgilari bilan bir vaqtda, uning farqlovchi xususiyatlari ham mavjud.

Moddiylik — bu murakkab ashylarni boshqa ashylardan ajratib turuvchi birinchi umumiy belgi. Bu o‘rinda biz biz murakkab ashylarning boshqa ashylar bilan umumiy belgilariga e‘tibor qaratamiz, bu belgilar ashylarni fuqarolik huquqining boshqa obyektlaridan farqlashga imkon beradi. Ashylar odatda har doim moddiy predmetlar sifatida tushuniladi. Ammo sivilistikada bu tushunchaga nisbatan kengroq yondashuvni ham uchratish mumkin: ashylar sifatida nafaqat moddiy, ya‘ni jismoniy seziladigan predmetlar, balki nomoddiy ashylar ham e‘tirof etiladi.

Moddiylik belgisi, shuningdek, falsafiy ildizlarga ega. Aristotel va yunon faylasuflari olamni modda va shakl birligi sifatida ko‘rib, moddiy obyektlarni insonning kundalik ehtiyojlarini qondiruvchi asosiy ne‘matlar sifatida talqin qilishgan. Ushbu falsafiy qarashlar Rim huquqida huquqiy tamoyillar orqali mustahkamlangan. Rim huquqida “*res*” (ashyo) atamasi ikki xil ma‘noda ishlatilgan. Ushbu atama orqali moddiy predmetlar, shuningdek, huquqiy munosabatlar va mulkiy huquqlar ham belgilangan. Gay quyidagicha ta‘rif bergan: ba‘zi ashylar moddiy (*corporeal*), ba‘zilari esa nomoddiy (*incorporeal*) hisoblanadi. Moddiy ashylar – bular sezish mumkin bo‘lgan narsalar, masalan, yer uchastkasi, odam (qul), oltin, kumush va nihoyat, boshqa ko‘plab ne‘matlar. Nomoddiy ashylar – bular sezish mumkin bo‘lmagan ne‘matlar; masalan, huquqlarda mujassam bo‘lgan ashylar: meros, uzufrukt, majburiyatlar va boshqalar” [7, 143-bet].

Sitseron o‘zining yunon ustozlariga ergashib, mavjud bo‘lgan ashylar (*res quae sunt*) va idrok etiladigan ashylarni (*res quae intellegentur*) farqlagan. Xuddi shu ikki yoqlamalik institutsiyalar (*shaxs* – *ashyo* – *da‘vo*) tuzilishini ham shakllantirib, unda “ashylar” atamasi ham aniq fazoviy chegaralarga ega bo‘lgan alohida yuridik mustaqil moddiy ne‘matni, ham umuman xususiy huquq yoki fuqarolik protsessining har qanday obyekti (shu jumladan nomoddiy obyekt)ni, shuningdek, butun mulkiy majmuani ham o‘z ichiga olgan [3, 274-bet].

K.P. Pobedonostsevning ta'kidlashicha, rimliklarda nomoddiy ashyolar jismoniy mavjudlik xususiyatlariga ega bo'lmay, iqtisodiy jihatdan real bo'lib, faqat huquqiy tasavvur asosida mavjud bo'ladi".

Bugungi kunda bunday talqin chet el mamlakatlarida, ayniqsa, anglo-sakson huquq tizimi mamlakatlarida keng tarqalgan. Fikrlash mantig'i klassik Rim qarashlariga o'xshaydi: agar huquq begonalashtirilishi mumkin bo'lsa, u ham o'ziga xos turdagi ashyo hisoblanadi (*chose in action* – talab qilinadigan ashyo). U.Mattei buning sababini umumiy huquq mamlakatlari yuridik fanining tipologiya sohasidagi tadqiqotlarga kamroq e'tibor berishida deb hisoblaydi [10, 114,131-betlar]. Yaponiya Fuqarolik kodeksining 85-moddasida "ashyo" atamasi ostida moddiy ne'matlar tushuniladi¹. Portugaliya Fuqarolik kodeksining 202-moddasida (1966-yil 25-noyabrdagi Dekret-qonun) "huquqiy munosabatlarning obyekti bo'la oladigan har qanday ne'mat ashyo deb ataladi"². Fransiya, Italiya va Kanadaning Kvebek provinsiyasida ham "nomoddiy obyektlar" tushunchasidan foydalaniladi, bu tushuncha ostida mulk huquqidan tashqari barcha mulkiy huquqlar nazarda tutiladi. Xuddi shunday yondashuvni Latviya Fuqarolik kodeksining 841-moddasida ham ko'ramiz: "Ashyolar moddiy va nomoddiy bo'ladi. Nomoddiy ne'matlarga turli shaxsiy-nomulkiy huquqlar, mulk huquqi va majburiyatga oid huquqlar kiradi, chunki ular mulkning tarkibiy qismi hisoblanadi"³.

Boshqa davlatlar, asosan qit'a huquq tizimiga ega bo'lgan mamlakatlar, boshqacha yo'ldan bordilar. Ularning fuqarolik huquqida ashyolar faqat bir ma'noda – moddiy predmetlar sifatida tushuniladi. Masalan, Germaniya fuqarolik kodeksining 90-paragrafida aniq ko'rsatilgan bo'lib: "Qonun nuqtai nazaridan faqat moddiy predmetlargina ashyo deb e'tirof etiladi"⁴. Rossiya, Shveysariya, Niderlandiya, Ozarbayjon, Moldova, Ukraina, Estoniya va boshqa mamlakatlarning fuqarolik qonunchiligida ham shunga o'xshash qoidalar mavjud.

Moddiy ashyolar konsepsiyasi tarafdorlari ashyolar sifatida faqat moddiy dunyo predmetlarini, ya'ni sezish mumkin bo'lgan ne'matlarni tan olishni taklif qiladilar. Mazkur pozitsiyaning argumentatsiyasi bir qator tezislarga asoslanadi, ammo bizning fikrimizcha, bu tezislar milliy huquqiy tartibda "nomoddiy ashyo" kategoriyasini joriy qilish uchun yetarli emas. Ularni sharhlashdan oldin, "moddiy" atamasidan nimani tushunishimizni aniqlab olamiz. Kutilganidek, biz bu tushunchaning ko'p ma'noliligi bilan to'qnash kelamiz. Haqiqatan ham "moddiy" tushunchasi birinchi ma'noda ashyo sifatidagi, jismoniy, ongdan mustaqil mavjud bo'lgan (masalan, "moddiy predmet" so'z birikmasida) deb talqin etiladi. Ikkinchi ma'noda esa "mulkiy, moliyaviy" (masalan, "moddiy manfaatlar" da) degan ma'noni anglatadi.

Tanlangan "moddiy" xususiyati savol tug'dirishi mumkin. Bunda "moddiy" so'zi "ashyo" tushunchasining mazmunini aniqlashtirishni talab qiladi. Y.A.Suxanov moddiylikni ashyoni jismoniy jihatdan his qilish qobiliyati orqali tushuntiradi va ta'rifning yuqorida keltirilgan tarkibiy qismlarini muvaffaqiyatli birlashtiradi: *his qilish* – teri biror narsa bilan tegishganda paydo bo'ladigan sezgi (beshta tashqi sezgidan biri) sifatida tasvirlangan [14, 301-bet]. Shu

¹ Yaponiya Fuqarolik kodeksi // <https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/CC1.pdf>

² Portuguese Código Civil (aprovado pelo Decreto-Lei n.º 47344/66, de 25 de Novembro, e alterado pela Lei n.º 150/2015, de 10/09) // <https://www.wipo.int/wipolex/en/legislation/details/3545>

³ Tulkošanas un terminoloģijas centrs. (2001). Konsolidētais Civillikuma teksts latviski [PDF variant, 478 bet]. VAS «Tiesu namu aģentūra». ISBN 9984-657-05-1. // <http://fineergoddom.eu/downloads/civil-law.pdf>

⁴ German Civil Code (BGB). (2021). Translation of the German Civil Code (Bürgerliches Gesetzbuch). Translated by Langenscheidt Übersetzungsservice, updated by Neil Mussett, and revised by Samson Übersetzungen GmbH, Dr. Carmen v. Schöning. Federal Law Gazette I, p. 3515. Retrieved from <http://www.gesetze-im-internet.de/bgb/BJNR001950896.html>

o'rinda qadimgi yunon faylasufi Lukretsiy Karning "Ashyolarning tabiati haqida" nomli mashhur risolasini eslash o'rinli bo'lar edi:

Ammo, barcha ashyo moddiy tabiatga ega,

Agar u sezgilarimizni harakatga keltira olsa:

Zero, faqat jisimgagina tegish va tegilishi mumkin [8, 25-bet].

Sezuvchanlikka urg'u berish bir qator boshqa sezgi a'zolari orqali his qilib bo'lmaydigan ne'matlarning moddiyligini aslo istisno etmaydi — masalan, elektr-energiya, elektromagnit maydonlar, radioto'lqin va boshqalar. V.A. Lapach iddao qilishicha, fuqarolik huquqi obyektlari tizimining kelgusidagi rivojlanishi bunday "moddiy, lekin sezib, his qilib bo'lmaydigan obyektlar"ni mulkiy guruhga kiritishga olib keladi, bu obyektlarni oraliq obyektlar toifasi sifatida (ashyolar va mulk huquqi orasida) tasniflash mumkin [7, 312, 404-betlar]. Ushbu obyektlar moddiy bo'lsa-da, sezilmasligi tufayli qoidadan ko'ra istisno hisoblanadi va ularni ashyolar qatoriga kiritish qiyin.

Xulosa. Murakkab ashyolar fuqarolik huquqi obyektlari sifatida, huquqiy nazariya va amaliyotda o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ularning asosiy xususiyatlari — erk-iroda yo'qligi, diskretlik va moddiylik — murakkab ashyolarni boshqa huquqiy obyektlardan ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Ushbu xususiyatlar murakkab ashyolarning huquqiy maqomini belgilashda va ularni tartibga solishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bildikki, murakkab ashyolarni tartibga solishdagi asosiy muammolar moddiy va nomoddiy obyektlarning tasnifida aniqlik yo'qligi bilan bog'liq. Ayrim obyektlar, masalan, energiya, elektromagnit maydonlar, boshqa moddiy va nomoddiy obyektlar orasida o'ziga xos oraliq toifani tashkil etadi. Ushbu obyektlar sezilmas bo'lsa-da, iqtisodiy va huquqiy qiymatga ega bo'lib, ularni qonunchilikka kiritish masalasi dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xorijiy tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, anglo-sakson huquq tizimlari mulkni kengroq talqin qilishga moyil bo'lib, "nomoddiy ashyolar"ni iqtisodiy va huquqiy ahamiyatga ega obyekt sifatida tan oladi. Aksincha, qit'a huquqi tizimlari moddiy obyektlar bilan cheklanib, nomoddiy obyektlarni ijtimoiy-munosabatlar doirasida ko'rib chiqadi. O'zbekiston qonunchiligida ham bu masalalar o'z yechimini topish uchun chuqur tahlilni talab qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Барон Ю. Система римского гражданского права. Выпуск первый. Книга I: Общая часть / [Сочинение] Профессора Боннского университета Ю. Барона; Перевод Л. Петражицкого. – Третье издание (исправленное по 9-му немецкому изданию). – СПб.: Склад издания в книжном магазине Н.К. Мартынова, 1909. – X, 250 с.
2. Баранцев Р.Г. Синергетика в современном естествознании. М.: Эдиториал УРСС, 2003. 144 с.
3. Бартошек М. Римское право: Понятия, термины, определения / Пер. с чешек. М.: Юрид. лит., 1989. 448 с.
4. Дигесты Юстиниана / Пер. с лат.; Отв. ред. И.И. Кофанов. Том V. Полуттом 2. М.: Статут, 2004. 602 с.
5. Дормидонтов Г.Ф. Система римского права. Вещное право / Студенческое издание. Казань: Типография Императорского ун-та, 1913. 348 с.
6. Коновалов А.В. Владение и владельческая защита в гражданском праве. 2-е изд., доп. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2002. 335 с.
7. Лапач В.А. Система объектов гражданских прав: Теория и судебная практика. СПб.: Юрид. центр Пресс, 2002. 544 с.

8. Лукреций К. О природе вещей / Пер. с лат. Ф.А. Петровского. М.: Изд-во Академии наук СССР, 1946. 452 С.
9. Марецолль, Теодор (1794-1873). Учебник римского гражданского права : Пер. с послед. (8-го) изд. нем. подлинника : [С доб. ст. Игеринга «О современном значении римского права» и библиогр. рим. права] / [Соч.] Теодора Марецолля. — Москва : тип. А. Мамонтова, Унив. тип. (Катков и К°), 1867. — [2], XXXVI, 488 с.
10. Маттеи У., Суханов Е.А. Основные положения права собственности. М.: Юрист, 1999. 384 С.
11. Мейер Д.И. Русское гражданское право. М.: Статут : Консультант Плюс, 2003. 507 с. («Русское гражданское право — Rus fuqarolik huquqi» asaridan tashqari, kitobga A.X. Golmstenning 6-nashr (1894-yil) va 8-nashr (1902-yil) uchun yozgan so'zboshilari hamda D.I. Meyer va A.I. Vitsinning tarjimai hollari kiritilgan. Bu tarjimai hollar ham A.X. Golmsten tomonidan yozilgan. Barcha matnlar 1902-yildagi tuzatilgan va to'ldirilgan 8-nashr asosida qayta nashr etilgan).
12. Победоносцев К.П. Курс гражданского права. Первая часть: Вотчинные права. М.: Статут, 2002 (Серия «Классика российской цивилистики»). 800 с.
13. Прутков К. Сочинения Козьмы Пруткова. Воронеж: Центрально-Черноземное издательство, 1985. 318 с.
14. Российское гражданское право: Учебник: В 2 т. Т. I: Общая часть. Вещное право. Наследственное право. Интеллектуальные права. Личные неимущественные права / Отв. ред. Е.А. Суханов. – 2-е изд., стереотип. – М.: Статут, 2011. – 958 с.
15. Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqi obyektlari. O'quv-qo'llanma. -T.: TDYI. 2009. 175 bet.
16. To'xtayev, O'ktamjon Zarifjon O'g'li MURAKKAB ASHYOLAR FUQAROLIK HUQUQLARI OBYEKTI SIFATIDA // ORIENSS. 2023. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/murakkab-ashyolar-fuqarolik-huquqlari-obyekti-sifatida> (дата обращения: 25.01.2025).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).